ANDIJON SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI HARAKATI VA YO‘LOVCHI TASHISH TIZIMINING TAHLILI

Muqimova Davlatxon Karimovna
Andijon Davlat Texnika Instituti, “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
Abdulakimov Mirjalol Shukurjon o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti magistr talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon shahrida jamoat transporti harakati va yo‘lovchi tashish tizimining holati o‘rganilgan. Shuningdek, mavjud transport yo‘nalishlari, avtobuslar soni, xizmat sifati hamda aholining ehtiyojlari o‘rtasida nomutanosiblik mavjudligi aniqlangan. Transport harakatini muvofiqlashtirish, bekatlarni optimallashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligi keltirib o‘tilgan. Tadqiqotda ilg‘or tajribalar asosida Andijon shahri uchun mos takliflar ishlab chiqdik. Shu bilan bir qatorda maqola natijalari transport tizimini takomillashtirish va yo‘lovchilarga qulayliklar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: transport, oqim, yo‘lovchi, tashish, avtobus.

Annotation. This article explores the state of public transport movement and passenger transport system in the city of Andijan. It has also been found that there is an imbalance between the existing transport routes, the number of buses, the quality of Service and the needs of the population. The need to coordinate traffic, optimize stops and introduce digital technologies has been cited. On the basis of advanced experiments in the study, we developed suitable proposals for the city of Andijan. Alternatively, the results of the article will be instrumental in improving the transport system and creating passenger amenities.

Keywords: transport, flow, passenger, transport, bus.

Аннотация. В данной статье рассматривается состояние системы общественного транспорта и пассажирских перевозок в городе Андижане. Также было обнаружено несоответствие между существующими транспортными линиями, количеством автобусов, качеством обслуживания и потребностями населения. Была отмечена необходимость координации движения, оптимизации остановок и внедрения цифровых технологий. В ходе исследования мы разработали соответствующие предложения для города Андижан на основе передового опыта. В качестве альтернативы результаты статьи приобретают важное значение для улучшения транспортной системы и обеспечения комфорта пассажиров.

Ключевые слова: транспорт, поток, пассажир, транспорт, автобус.

Kirish.

ISSN 3030-3907

Bugungi kunda Andijon viloyatida jami 464 ta yo‘lovchi tashuvchi avtotransport korxonalari mavjud bo‘lib, ulardagi transport vositalari soni 11061 tani tashkil etadi. Shundan, 215 ta avtobus, 90 ta mikroavtobus, 10756 ta yengil avtotransport vositalaridir. Viloyat bo‘yicha jami yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari 314 tani tashkil etib, shundan 72 tasi avtobus va 242 tasi yo‘nalishli taksilardir *(mikroavtobus, damas)* [1].

Jumladan:

- 74 ta shahar yo‘nalishlari (Andijon shahri);
- 225 ta shahar atrofi yo‘nalishlari;
- 5 ta viloyat ichi shaxarlararo;
- 10 ta shaharlararo-viloyatlararo yo‘nalishlar.

Viloyatda jami 1 ta avtovokzal, 19 ta avtostansiyalar mavjud.

Viloyatda jami 1326 ta oraliq bekatlar mavjud.

Viloyat hududidan respublikaning 2 ta viloyatiga *(Farg‘ona va Namangan shahriga)* 9 ta yo‘nalish mavjud bo‘lib, shundan 5 tasi yo‘nalishli taksi, 4 tasi avtobus yo‘nalishi qatnovlari yo‘lga qo‘yilgan [2,3].

Andijov viloyatida 2024 yilda quyidagi ishlar amalga oshirilgan :

Viloyat aholisiga sifatli avtotransport xizmatlari ko‘rsatish maqsadida, 2024 yil davomida yangi avtobus yo‘nalishlari tashkil etildi.

2024-yilning 2-iyul sanasidan e’tiboran 1-sonli “Gulshan MFY – Andijon shahar shifoxonasi” avtobus yo‘nalishi brutto-shartnoma tizimiga o‘tkazildi. Ushbu yo‘nalishga 20 dona avtobus biriktirilgan bo‘lib, qatnov oraliq intervali 10 daqiqani tashkil etadi [4].

Shu munosabat bilan yo‘lovchilarning avtobuslarga chiqishi va tushishi qat’iy tartibda oraliq bekatlaridan amalga oshirilishi lozim. Haydovchilarga tegishli yo‘riqnomaga asosan faqat bekatlarda yo‘lovchi olish va tushirishi, qat’iy jadval asosida harakatlanishi, yo‘lovchi bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar har bir bekatlarda to‘xtab o‘tishi lozimligi tushuntirilgan.Andijon viloyati bo‘yicha jami 314 ta yo‘nalishlar (ma’lumot uchun: ushbu yo‘nalishlarning 72 tasida (22.9%) avtobuslar, 7 tasida (2,2%) mikroavtobuslar hamda 235 tasida (74.9%) “Damas” rusumli avtomobillar) faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan 54 ta yo‘nalishlar turli xil sabablarga ko‘ra amalda qatnovlar to‘xtab qolganliklari aniqlandi. Bundan tashqari, o‘rganishlar natijasida 2024 yilda Andijon viloyatida jami 12 ta yangi yo‘nalishlar tashkil etish belgilab olindi [5].

Metodologiya. Ushbu ko‘rsatkichlardan ma’lumki, viloyatimizda Andijon shahri va shahar atroflarida istiqomat qiluvchi aholining jamoat transportiga bo`lgan talabi yo`nalishli taksilar orqali qondrilmoqda.

Bu esa aholini ijtimoiy himoyalanish, xususan, yo‘lovchilarning jamoat transportidan foydalanishda arzon narxlarda foydalanish imkoniyatlarini

ISSN 3030-3907

cheklamoqda. Bundan tashqari, yo‘lovchi yo‘nalishlarida avtobuslarning kamayishi avtomobil yo‘llarida mikroavtobus va yengil avtomobillar sonining sezilarli miqdorda ko‘payishiga olib kelmoqda [6]. Xozirgi kunda viloyatda sig‘imi 6 ta yo‘lovchiga teng bo‘lgan “Damas” rusumli yengil avtomobillar mavjud (Viloyat aholisining 74.9 foizi shu avtomobillarda tashilmoqda) yo‘lovchi transport xizmatlari bozorining asosiy qismini egallagan va ulardagi 1 yo‘lovchi uchun belgilangan yo‘l kira haqi miqdori muntazam avtobus yo‘nalishlaridagidan ko‘ra 2 barobar yuqori bo‘lmoqda. Bu esa aholining jamoat transportidan ko‘ra shaxsiy avtomobillardagi qatnovini oshishiga oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Natija va muhokama. Andijon viloyatida avtomobillarda tashilayotgan yo‘lovchilar hajmining va jami litsenziyalangan avtomobillar tarkibida yengil avtomobillar ulushining muntazam o‘sib borayotgani viloyatimiz aholisiga yo‘lovchi transporti xizmatlarini ko‘rsatish bozorida avtobus va mikroavtobuslarning ulushi kamayib bormoqda deb xulosa qilish uchun asos bo‘la oladi.

Shuningdek, yo‘lovchi transporti bozorida yengil avtomobillarning ko‘payishi bir qator boshqa ijtimoiy-salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatlarga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, yo‘lovchi yo‘nalishlari bo‘yicha qatnovchi transport vositalarining harakatlanish tezligi belgilangan darajadan oshishi, yo‘lovchilar ishtirokidagi yo‘l-transport hodisalari sonining oshishi, “tig‘iz soat”larda avtomobil harakati gavjum bo‘lgan yo‘llarda tirbandliklarni vujudga kelishi va avtomobil dvigatellari ishlashidan hosil bo‘luvchi zararli gazlarning atmosferaga ajralib chiqish hajmining o‘sishi shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkinki, Andijon viloyatida aholiga sifatli transport xizmatini tashkil etishda, ayniqsa yo‘lovchi tashish tizimida mavjud yo‘nalishlar va ularda harakatlanayotgan transport vositalari parkida avtobus va mikroavtobuslar soni oshirishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda Andijon shahrida 18 ta mavjud yo`nalishdan 4 ta avtobus yo‘nalishlari mavjud. Ular: shi-1 “Gulshan MFY – 2 son Shifohonasi”, shi-75 “Pistamozor – 36-post”, shi-222 “Pistamozor – Markaziy shifoxona”, shi-2 “Aeraport – Sadda” yo‘nalishlaridir.


Hududlarda jamoat transportini rivojlantirish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlar yuzasidan Andijon shahrida qo‘shimcha yangi avtobus yo‘nalishlari ochilishi rejalashtirilmoqda.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Andijon shaxridagi faoliyat yuritayotgan avtobus yo`nalishlari to`g`risida ma'lumot

№	№	Yo`nalish nomi	Masofasi, km	Reja bo`yicha avtotransport soni	Amaldagi avtotransport soni	Yangi avtobuslar-ga extiyoj
1	shi-1	Gulshan MFY – 2 son Shifohonasi	15,6	40	25	**15**
2	shi-75	Pistamozor – 36-post	14,0	20	25	**15**
3	shi-222	Pistamozor – Markaziy shifoxona	6,0	8	15	**15**
4	shi-2	Aeraport – Sadda	7,5	20	15	**16**
		JAMI:	**93,1**	**148**	**80**	**60**



1-rasm Andijon shahrida jamoat transportini rivojlantirish va tartibga solish sxematik xaritasi

Andijon shahar transportini mavjud holati

ISSN 3030-3907


Andijon shahrida bir kunda o‘rtacha 700 ming yo‘lovchi oqimi avtotransportda tashiladi. Tashilgan yo‘lovchilar soni jihatidan Andijon viloyati Toshkent shahridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Yo‘lovchilar tashishda avtobus xizmatlarining ulushi 1 foizni tashkil qiladi. Yo‘lovchilarning aksariyati yo‘nalishli (“Damas” avtomobillari) va yo‘nalishsiz taksi xizmatlaridan foydalanadi.

Andijon shahri hududida 1 ta avtovokzal va 5 ta avtostansiya joylashgan, 86 ta avtobekatlar mavjud. Shahardagi yo‘nalishlarning har 350 metriga 1 ta avtobekat to‘g‘ri keladi.

Shahar bo‘yicha yo‘lovchi tashish yo‘nalishlari 64 tani tashkil etadi. Shundan 8 tasi avtobus va 56 tasi yo‘nalishli taksi yo‘nalishlarini tashkil qiladi. Yo‘nalishlarning asosiy qismini ya’ni, 179 tasi shahar atrofi hududlarida tashkil etilgan.

Hududda yo‘lovchi tashish xizmatlari asosan yengil avtomobillarda amalga oshiriladi. Tashishlarni amalga oshiruvchi litsenziyalangan avtotransport soni 7772 tani tashkil etadi. Shundan 2028 ta yo‘nalishsiz taksilar, 5612 ta yo‘nalishli taksilar (Damas) yengil avtomobillariga to‘g‘ri keladi. Shahar hududida jami litsenziyalangan avtobuslar soni 82 tani va mikroavtobuslar soni 95 tani tashkil etadi.



2-rasm. Andijon shaxrida jamoat transportining xozirgi holati Shaharda jamoat transporti (2024 yil natijalari).

Mavjud muammolar yechimi bo‘yicha takliflar

Taklif: Tirbandliklarni oldini olish uchun yangi avtobuslar sotib olib yo‘nalishlarga qo‘yish kerak.

ISSN 3030-3907

Avtobuslar sotib olishda bank kreditlari foizlari va lizing foizlarini kamaytirish hamda chet davlatlardan sotib olinadigan avtobus va mikroavtobuslarga bojxona imtiyozlarini beruvchi me'yoriy hujjat ishlab chiqish.

Viloyat aholisining avtotransport xizmatiga bo'lgan ehtiyojini nisbatan arzon va sifatli bo'lgan avtobuslar yordamida qondirish maqsadida avtobus va mikroavtobus sotib oluvchi tadbirkorlarga imtiyozli kredit ajratilishida (to'lov muddatlarini 3 yildan ko'p bo'lgan muddatlarga hamda imtiyozli foiz stavkalarida), garov hisobida sotib olinayotgan transport vositalarini o'zini qo'yish imkoniyatini yaratish shuningdek, chetdan (Xitoy, Rossiya) avtobus olib kelishda imtiyozlar qo'llanilishida amaliy yordam zarur bo'lmoqda.

Xulosa.

Andijon shahrida jamoat transporti tizimi aholining real ehtiyojlariga to'liq javob bermayapti. Transport vositalarining yetishmasligi, harakat jadvalidagi nomuvofiqliklar va yo'nalishlarning samarasizligi yo'lovchilarga noqulaylik tug'dirmoqda. Tizimni takomillashtirish uchun yo'nalishlarni qayta ko'rib chiqish, zamonaviy avtobuslarni joriy etish, transport harakatini raqamlashtirish va boshqaruvni avtomatlashtirish zarur. Shu bilan birga, aholining fikr-mulohazalariga asoslangan holda xizmat sifatini oshirish Andijon shahrida jamoat transportining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Alijonovich N.M., Zakirovich N.I. ANDIJON SHAHRIDAGI TRANSPORT OQIMLARINING TAHLILI //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 2. – C. 223-230.

2. N. Dadashzadeh va M. Ergun, "Spatial bus priority schemes, implementation challenges and needs: an overview and directions for future studies," Transportation Research Part A: Policy and Practice, vol. 118, pp. 1–15, 2019.

3. Xakimov Mavlonbek Solijon o'g'li, & Yusupov Sarvarbek Sodiqovich. (2024). ANDIJON SHAHAR JAMOAT TRANSPORTIDA AVTOBUSLAR ISH UNUMDORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TEXNIK EKSPLUTATSION KO'RSATKICHLAR TAHLILI. Journal of New Century Innovations, 62(3), 139-144.

4. Nazirov Nodirbek Jamoliddin o'g'li, & Yusupov Sarvarbek Sodiqovich. (2024). INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINING QO'LLANISHI VA JAHON TAJRIBASI TAHLILI. Journal of New Century Innovations, 62(4), 24-28.

5. A. Usmonov, "Andijon shahrida jamoat transportida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va avtobus yo'nalishlarini brutto shartnoma asosida tashkil etish," Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research, vol. 2, no. 7, pp. 24–26, 2024.

ISSN 3030-3907

6. G. Cheng, X. Liu, va Y. Pei, "A review of research on public transport priority based on CiteSpace," Journal of Traffic and Transportation Engineering (English Edition), vol. 10, no. 6, pp. 1118–1147, 2023.

ISSN 3030-3907